

## PUDRAT SHARTNOMASI

2022 yil «16» 6

2022-964-12-170-  
OB-son

Bog'ot shaharchasi

Keyingi o'rnlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan «Bog'ot tuman Obodonlashtirish boshqarmasi» nomidan nizom asosida ish yurituvchi, raxbari O.Avezov bir tomonidan, keyingi o'rnlarda «Pudratchi» deb yuritiladigan "DRUJBA" Mas'uliyati cheklangan jamiyat nomidan nizom asosida ish yurituvchi raxbari A.Dusniyozov ikkinchi tomonidan Bog'ot tuman Ashxobod mahallasi Ravnaq va Parvona ko'chalari ichki ho'jalik yo'llarini joriy ta'mirlash bo'yicha maskur pudrat shartnomasini tuzdilar

### I. TA'RIFLAR

- 1.Mazkur shartnomada quyidagi ta'riflар qо'llaniladi; -ijro xujjatları- naturada bajarilgan ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofiqligi to'g'risidagi yozuvlar bilan bирgalikda obyekt qurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarning sifatini va ishlarni bajarishda qo'llaniladigan materiallar, konstruksiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa xujjatlar, berkitiladigan ishlarni tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatlari konstruksiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, montaj kilingan asbob-uskunalarning yakka tartibdagi sinovi to'g'risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari xamda qurilish normalari va qoidalardida nazarda tutilgan boshqa hujjalari;
- qurilish maydoni – mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma buyicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi. Ob'ektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilari bilan belgilab quyiladi;
- vaqtinchalik inshootlar – Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan har qanday tipdag'i vaqtinchalik binolar va inshootlar;
- berkitiladigan ishlarni – sifati va aniqligini keyingi ishlarni bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lмаган keyinchalik bajariladigan ishlarni va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlarni;
- shartnoma narxini bo'lib chiqish – ishlarning har bir bosqichi va yoki turlari qiymatinianiq belgilagan holda shartnoma bo'yicha ob'ektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

### II. SHARTNOMA MAVZUSI.

2.Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga muvofiq Bog'ot tuman Ashxobod mahallasi Ravnaq va Parvona ko'chalari ichki xo'jalik yo'llarini joriy ta'mirlash islari bo'yicha ko'zda tutilgan loyixa buyicha ta'mirlash ishlarni bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga ta'mirlash ishlarni bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

### III. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI.

3. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajarilgan, tanlov savdosi (tanlov) natijasida aniqlangan va tanlov korissiyasining qarori (2022yil «14» iyundagi №101201-son bayonnomasi) bilan tasdiqlangan ishlarni qiymati barcha soliqlar, yig'implar, ajratmalar va pudratchining boshqa xarajatlarini o'z ichiga oлgan holda joriy narxlarda 211 979 279 (Ikki yuz o'n bir million to'qqiz yuz ettmish to'qqiz ming ikki yuz etmish o'ttiz) so'mni tashkil etadi.

- 4.Ishlar qiymatini o'zil-kesil xisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:
  - qurilish qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lganda;
  - ishlarni qiymati Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;
  - ob'ektning qurilishi bir yildan ortiq muddatga o'zgartirilganda.
5. Qurilish muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.
6. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'tasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

### IV. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI.

7. Mazkur shartnoma buyicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bo'lmidida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:
  - barcha ishlarni mazkur shartnomada xamda unga 2-ilovaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan xajmda va muddatlarda o'zining kuchlari yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish xamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish;
  - qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikasini yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlashni ta'minlaydi;
  - qurilish maydoni xududida vaqtinchalik inshootlar qurish;
  - Buyurtmachini subpudratchilar bilan shartnomalar to'zilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to'g'risida xabardor qilish;
  - qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muxitni, o'tkazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muxofaza qilish buyicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shuniingdek yoritish chiroklari o'rnatish;
  - qurilish tavakkalchiliklarini sug'urta qilish;
  - mazkur shartnoma buyicha ob'ektni foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob – uskunalar, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar konstruksiyalar xamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish;
  - qurilish maydoni quriklanishini ta'minlash;
  - qurilishda tavakkalchilik sug'urtasi uchun belgilangan summaga sug'urta tashkilotlaridan biri bilan tavakkalchilik sug'urtasi to'g'risida shartnoma to'zadi va sug'urta shartnomasi bilan sug'urta polisini byurtmachiga taqdirm qiladi.
  - mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq xajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.
8. Pudratchi mavjudligini kafolatlagan o'zining 20% ga teng bo'lgan va unga xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan berilishi kafolatlangan 20% aylanma mablaglarini mazkur shartnomada ko'zda tutilgan obyekt xarajatlari uchun unumli ishlash majburiyatini oladi.
9. Pudratchi ob'ektni foydalanishga topshirish uchun Buyurtmachiga barcha ishlarni isbotlovchi xujjatlarni (ispolnitelnya dokumentatsiya) to'liq xajmda taqdirm qiladi.
10. Pudratchi mazkur shartnoma buyicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi xamda ob'ektning foydalanishga tayyor holda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

## V. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI

11. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:  
-mazkur shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan qurilish maydonini obyekt qurilishi va qurilish tugallangungacha bo'lgan davrga dalolatnoma buyicha Pudratchiga berish;  
-ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;  
-Pudratchining barcha murojaatlarini o'n kun muddatda ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;  
-moliyalashtirish jadvaliga binoan Pudratchiga 1-ilovaga muvofiq avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish;  
-Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro xujjatlari ruxyatini taqdim etish;  
-mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarini to'liq xajmda bajarish majburiyatlarini oladi;
12. Buyurtmachi mazkur shartnomada ko'zda tutilgan o'z majburiyatlarini bajarmasa yoki yetarli tarzda bajarmasa pudratchi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

## VI. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI

13. Shartnoma tomonlar uni imzolagandan va G'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin yuridik kuchga kiradi.  
14. Pudratchi mazkur shartnomaga ilova qilingan ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq ishlarni bajaradi  
15. Obyektni Shartnoma tomonlar uni imzolagandan va G'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tkazilgan keyin 30 kunda foydalanishga topshirilishi belgilanadi.

## VII. TO'LOVLAR VA XISOB – KITOBLAR

16. Shartnoma bo'yicha o'zaro xisob-kitoblar milliy valyuta - «so'mda» qilinadi.  
17. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha ishlarni umumiy joriy qiymatining 30% miqdorida avans o'tkazadi, bu 63 593 733 (Oltmiss uch million besh yuz to'qson uch ming etti yuz sakson uch) so'mni tashkil etadi.  
18. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish uchun budgetdan maqsadli berilgan mablag'lar o'ttiz-bank kunida moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvali asosida amalga oshiriladi. (1,2-ilovalar)  
19. Buyurtmachi tamonidan joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlarni xajmi va sifati tekshirilib qabul qilingandan keyin xaqiqiy bajarilgan ishlarni qiymatidan berilgan avans summasini proporsional ushlab qolgan holda moliyalashtirish jadvali bo'yicha amalga oshiradi.  
20. Pudratchining xisob raqamiga tushadigan mablag'lar ushbu obyekt qurilishi xarajatlariga, shuningdek ta'minotchilarga, obyekt qurilishiga zarur bo'lgan materiallar, texnika resurslari, mexnatga xak to'lash, obyekt qurilishida ishtirot etayotgan yordamchi tashkilotlarga to'lash uchun va ushbu obyekt qurilishining boshqa xarajatlariga qat'iy sarflanadi.  
21. Pudratchi joriy moliyalashtirish uchun xisobot oyning oxirgi kunigacha va yakuniy moliyalashtirish uchun xisob kitob uchun qurilish montaj ishlarni miqdori, xarajatlari to'g'risidagi «Bajarilgan ishlarni qiymati to'g'risidagi ma'lumotnoma xisob-varaq-faqturani» o'zi to'zib taqdim qiladi. Buyurtmachi bajarilgan qurilish-montaj ishlarning miqdori, sifati va xarajatlarini tekshirib qabul qilib imzolaydi.  
22. Buyurtmachiga joriy moliyalashtirish va yakuniy xisob-kitob uchun, bajarilgan qurilish-montaj ishlarni miqdori, sifati va xarajatlari tekshiruvidan so'ng Pudratchi tomonidan to'ziladigan va Buyurtmachi tomonidan qabul qilib imzo cheqiladigan «Bajarilgan ishlarni qiymati to'g'risidagi ma'lumotnoma-xisob-varaq-faqtura» asos bo'ladi.  
23. Pudratchi obyekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektga mulk xuquqini o'zida saklaydi. Obyekt Buyurtmachiga topshirigunga qadar ob'ektning tasodifiyo yo'k qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

## VIII. ISHLARNI BAJARISH.

24. Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini – texnik auditorni tayinlaydi, "buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlarni sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalarining shartnoma shartlariga va ishlarni xarajatlari qiyatlarni tekshiradi.  
25. Texnik auditor ishlarni bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'siqsiz tanishish xuquqiga egadir.  
26. Pudratchi texnik auditorni ishlashi uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luchchi masalalarni xal qilish bo'yicha yig'ilishlarda mutazam ravishda qatnashadi.  
27. Pudratchi ishlarni bajarish loyixasiga va mazkur shartnomaning VI-bulimida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasiga ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.  
28. Pudratchi Buyurtmachining manfaatlari jiddiy ta'sir qilmaydigan ishlarni xarajatlari qiyatlarni tekshirib qabul qilinadi.  
29. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpu'dratchilarini tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u holda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiyatini kupaytirmsadan ushbu ishlarni ularni zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir.  
Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa, Pudratchi ularni to'zatishning kechiqishi oqibatida yetkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

30. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha Pudratchi ishlarni bajarish daftaroni yuritadi. Daftarda butun ishlarni borishi, Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarda axamiyatga ega bo'lgan holatlari va holatlari (ishlarni boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi sanasi, ishlarni Qabul qilib olinishi, o'tkazilgan sinovlar, materiallar o'z vaqtida yetkazib berilmasligi bilan boglik to'xtab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi tugrisidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettilirladi.  
Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan konikmasa, u holda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi.  
Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

## IX. YENGIB BO'LMAVDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) holATLARI

31. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki tulik bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlari mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'lik bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.  
Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlari yo'zaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

32. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni qonservatsiya qilish uchun qanday choralar qurilishini muxokama qiladilar.

33. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga xaqlidir.

#### XI. KAFOLATLAR.

34. Pudratchi-barcha ishlarni to'lik xajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;- loyixc xujjaligiga xamda qurilish me'yorlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifatini;

- o'zi tomonidan qurilish uchun qullaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qonstruksiya va tizimlar sifatini, ularning loyixa xujjaligida ko'rsatilgan sertifikatsiyalarga, davlat standartlariga xamda texnik shartlarga muvofiqligini;

- ishlarni qabul qilish va ob'ektdan foydalanihning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni;

- ob'ektdan foydalanihning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni;

Mavjud nuqsonlar va ularning bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

Agar Pudratchi bajarilgan ishlardagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarning kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddati ichida bartaraf etmasa, u holda Buyurtmachi mazkur shartnomaning umumiyl summasini 5% miqdorida jarima solish xuquqiga ega.

#### XII. SHARTNOMANI BEKOR QILISH.

35. Buyurtmachi:- shartnoma kuchga kirgandan keyin ta'mirlash boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;

-ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan holda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rivoja etilmaganda;

-Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalari nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

Qonun xujjaligiga muvofiq boshqa asoslar buyicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish xuquqiga ega.

36. Pudratchi:

-ishlarning bajarilishi Pudratchiga boglik bo'lmagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan ikki oydan ortiq muddatga to'xtatib ko'yilganda;

-Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari umuman bajarilmaganda;

Qonun xujjaligiga muvofiq boshqa asoslar buyicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish xuquqiga ega.

37. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish bir oy muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlarni qiyamatini Pudratchiga to'laydi.

38. Mazkur shartnomaning bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonaga yozma bildirishnomasi yuboradi.

39. Shartnoma bekor qilingan takdirda aybdor tomon ikkinchi tomonaga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

40. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilishiga yo'l quyilmaydi, qonun xujjaligida yoki mazkur shartnoma nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

#### XIII . TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI.

41. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon: ikkinchi tomonaga yetkazilgan zararlarni qoplaydi;

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjaligida hamda mazkur shartnoma nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

42. Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rivoja qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarining bajarilmagan qismining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiyl summasi obyekt shartnomaviy joriy qiyatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

43. Penya to'lanishi Buyurtmachini shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

44.. Pudratchi obyektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarining bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiyl summasi obyekt shartnomaviy joriy qiyatining 50 foizidan oshmasligi lozim. Penya to'lash Pudratchini ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

45. Agar bajarilgan ishlarni sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yorlari va qoidalari, ish hujjaligiga muvofiq bo'lmasa, u holda Buyurtmachi «Davarxitektqurilishnazorat» inspeksiyasining xulosasi asosida obyektni qabul qilish va uning uchun haq to'lashdan bosh tortishi, shuningdek Pudratchidan sifati zarur darajada bo'lmagan ishlarni qiyatining 20 foizi miqdorida jarima undirish huquqiga ega.

46. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur moddada nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomaning buzgan tomon ikkinchi tomonaga boshqa tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalananidigan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

47. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarining boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

#### XIV. NIZOLARNI XAL ETISH TARTIBI.

48. Shartnomaning bajarishda va bekor qilishda yoki o'zgartirishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan barcha nizoli masalalarni tomonlar muxokama bilan kelishuvga erishmasalar, uholda ular qonun xujjaligida belgilangan tartibda sudga murojat qilishlari mumkin.

#### XV. ALOHIDA SHARTLAR

49. Mazkur shartnoma imzolanganidan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar urtasidagi barcha oldindi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yuqotadi.

50. Pudratchi qurilish ob'ekti yoki uning alovida qismlariga tegishli ish xujjaligini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchiligi tomonaga sotish yoki berish xuquqiga ega bo'lmaydi.

51. Mazkur shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, xaqiqiy xisoblanadi.

52. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'tasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan har qanday axdashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.
53. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirs, u holda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga xaq to'lashni kechiktirishga xaqlidir.
54. Mazkur shartnomaning joriy narxlardagi kelishilgan summasi me'yoriy-qonun xujjalariqa Q.Q.S. to'g'risida o'zgartirishlar kiritilsa qayta ko'rib chiqiladi.
55. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi konun xujjalari ko'llaniladi.
56. Mazkur shartnoma tamonlar imzolanib Budjet kodeksining 122-moddasiga asosan G'aznachilikdan ro'yxatdan o'tg'andan keyin yuridik kuchga kiradi va bu shartnoma 31.12.2022-yilgacha amal qiladi.
57. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lib 3 nusxada tuzildi.

#### XVI. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLASHUV

58. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaivi harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.
59. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaiga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.
60. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabдор shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlар yuzasidan qonunga xiлоf ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdag'i imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kelajakda bu turdag'i harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirilmaganligini) kafolatlaydi. Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilinjan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasdigi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.
61. Taraflar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar tomonidan korrupsiyaiga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o'tkazilmasligini kafolatlaydilar.
62. Agar bir tarafga boshqa tarafning korrupsiyaiga qarshi qo'shimcha shartlarning buzilishiga yo'l qo'yanligi ma'lum bo'lib qolsa, ikkinchi tarafni bu haqda zudlik bilan xabardor qilishi va ushbu tarafdan oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rinishini va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan unga xabardor qilishini talab qilishi shart. Tarafning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

#### XVI. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLARI.

<b>"DRUJBA" MCHJ</b>	<b>«Bog'ot tuman Obodonlashtirish boshqarmasi»</b>
<b>Manzili: Gurlan tuman Birlashgan maxallasi</b>	<b>Manzili: Bog'ot shaharchasi Tinchlik ko'cha 2 uy</b>
<b>Tel/faks : +998-97-791-00-22</b>	<b>Tel/faks 62 31 52 783</b>
<b>x/v :20208000300352587001</b>	<b>ShXR 401722860332047065200110004</b>
<b>Banknomi : Hamkorbank Urganch f-li</b>	<b>Budjetdan mablag oluvchi STIRi 206943827</b>
<b>MFO : 01020</b>	<b>MFO 00014</b>
<b>STIR :201852359</b>	<b>OKONX: 92310</b>
<b>HHTUT</b>	<b>G'aznachilik bul nomi: Moliva Vazirligi Yagona Gazna hisob varagi</b>
	<b>G'azanax/v 23402000300100001010</b>
	<b>Bankning nomi Markaziy Bank Toshkent sh bosh boshqarmasiB</b>
	<b>STIR 201122918</b>
<b>Raxbar A.Dusniyozov</b> (imzo)	<b>Raxbar O.Avezov</b> (imzo)



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY  
XULOSA №TS77081481**

- Loyihaning turi:** Shartnoma
- Loyihaning nomi:** “DRUJBA” MChJ va Bog‘ot tuman obodonlashtirish boshqarmasi o‘rtasida tuzilgan pudrat shartnomasi
- Loyiha ishlab chiqaruvchisi va kiritilgan sana haqida ma’lumot:** Bog‘ot tuman obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan ishlab chiqilgan va 16.06.2022-yilda dasturga kiritilgan.

**X U L O S A:**

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan hamda uni qabul-qilish maqsadga muvofiq.

Bog‘ot tuman yuridik  
xizmat ko‘rsatish markazi  
bosh yuriskonsulti



D.Matiyazov

16.06.2022

Хоралм вилоти, Богот тумани Ашхобод махалласи Равнак ва Парвона кӯчалари ички йўлларини жорий таъмирлап ишлари ички хўжалик йўлни жорий таъмирланганлари

бўйича тандовда ютиб олингандан нархни 2022 йил ойларидаги молялаштириш

ЖАДДАВАЛИ

Т/р	Номи	Жами Молиялашти- рилган маблаг	1-чорак			2-чорак			3-чорак			4-чорак		
			январ	феврал	март	апрел	май	июн	июл	август	сентябр	октябр	ноябр	декабр (5фойиз)
1	Аванс (30 % миндорида)	63 593 783						63593783						
2	Курилиш монтаж ишлари	148 385 496						148385496						
	Жами	211 979 279	0	0	0	0	0	211979279	0	0	0	0	0	0



Букортмачи  
Богот туман обводонлаштириши  
Бошхармаси сошлими  
M.Y




О.Авеевов

А.Дусноёзов

Хоразм вилояти, Богоғ тумани Ашҳобод махалласи Равнак ва Парвона қўчалари ички йўлларини жорий таъмирлаш ишлари бўйича танловда ютиб олган нархни 2022 йил ойлар давомидаги  
ишларни бажариши  
ЖАДВАЛИ

T/p	Номи	Жами молиялаш- тирилган маблаг (ишларни бажариш)	2022 йил ойлар курилиш киймати			
			1-чорак	2-чорак	3-чорак	4-чорак
			январ	феврал	март	апрел
1	Курилиш монтаж ишлари	211979279				июн
		211979279	0	0	0	июл
					август	
					сентябр	
					октябр	
					ноябр	
						декабр



Буюртмани  
Богоғ туман обидонлаштириш  
бошхармаси бозилий озодонлаштириш  
M.Y

О.Авеев

М.У

Пулдатчи  
"DRUJ" МЧЖ

DRUJ

М.У

А.Дусноёзов



KAFOLAT

**Курилиш-монтаж таваккалчилларни иктиёрий сугурталаш  
ПОЛИСИ**

«KAFOLAT sug'urta kompaniyasi» AJ, 2022 йил 16 июндаги №13-11/2022/26/5-сонли Курилиш таваккалчилларни сугурталаш Шартномасининг шартларига мувофик, "DRUJVA" МЧЖнинг мулкий манфаатларини сугурта химоясини тақдим этади.

**Умумий сугурта суммаси:** 204157593 (икки юз турт милион бир юз эллик етти минг беш юз туксон уч ) сўм.

Шу жумладан:

- а) мол-мulkни сугурталаш бўйича: ( ) сўм  
б) учинчи шахслар олдида фукаролик жавобгарлигини сугурталаш бўйича: \_\_\_\_ (\_\_\_\_),  
ҳаёти ва соғлиғига зарар етказилиши учун битта шахс учун \_\_\_\_.

**Сугурта мукофоти:** 653304 (одти юз эллик уч минг уч юз турт) сўм сугурталаш шартномасининг шартларига мувофик.

**Шартсиз франшизанинг миқдори:** хар бир сугурта ходисаси бўйича сугурта суммасидан \_\_\_\_ % ни ташкил этади.

Сугурталовчининг мажбуриятлари 2022 йил 16 июндан бошлаб кучга киради ва 2023 йил 15 июн соат 24-00 гача амал килади.

**Сугурталовчининг номидан:**



Берилган санаси: 2022 й. 16 июн



**Богот туман Ашхобод МФЙ Равнак ва Парвона күчалары ички хүжалик йүлини  
жорий таьмирлаш - 0,31 км  
НУКСОНЛАР КАЙДНОМАСИ**

2022 йил Май ойидаги холаты

Кисм чегараси ПК+	Үзүүлгиги (м)	Йүл колпамаси мавжуд холаты	Йүл камчиликларини түзүүнде килинадиган ишлар	Үлчөв бирлиги	Микдори
1	2	3	4	5	6
0+00 2+17	217	Мавжуд йүл пойи эни бм, асфальтобетон колпамаси эни 4,5м, бузилиб, смирилиб ийхолтан. Лой коплаган. Коникарсыз холатда.	(Парвона күчаси) Йүл профилдини материал күшмай тиклаш. (217x6)+R ПК0+00-2+17 Тооцдан Н=15 см колинилкда асос куриш. (217x4,7)+R ПК0+00-2+17 Битум сепиш 0,5т/1000м <sup>2</sup> Янти иссик майды донаалы асфальтобетон коринмасидан 5 см колинилкда конлама куриш. (217x4,5)+R ПК0+00- 2+17 Йүл ёкасини Н=5 см колинилкда тош билан мустахкамлаш. (217*0,75)*2 ПК0+00-2+17	м2 1312 м2 1030 тн 0,494 м2 987 м2 326	
0+00 0+93	93	Мавжуд йүл пойи эни бм, асфальтобетон колпамаси эни 4,5м, бузилиб, смирилиб ийхолтан. Лой коплаган. Коникарсыз холатда.	(Равнак күчаси) Йүл профилдини материал күшмай тиклаш. (93x6)+R ПК0+00-0-93 Тооцдан Н=15 см колинилкда асос куриш. (93x4,7)+R ПК0+00-0-93 Битум сепиш 0,5т/1000м <sup>2</sup> Янти иссик майды донаалы асфальтобетон коринмасидан 5 см колинилкда конлама куриш. (93x4,5)+R ПК0+00- 0+93 Йүл ёкасини Н=5 см колинилкда тош билан мустахкамлаш. (93*0,75)*2	м2 568 м2 447 тн 0,215 м2 429 м2 140	

Материал ташшы масофаси:

Тош	к-р Жумуртуу
Асфальтобетон	Ургач АБЗ

Ободонлаштырылыш бошкармаси вакили:

“Лойиха тапкырлык вакили”

Финн

Финн



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI  
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»  
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Хоразм вилояти

Xorazm viloyati 220100, Urganch shahar, P.Maxmud ko'chasi, 46 uy. Tel: +998904387766, E-mail: irada13@inbox.ru, www.ekspertiza.mc.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: Bekchanova Nellya Axatovna

Sana: 23-05-2022 yil



**Yig'ma ekspert xulosasi № 43442**

**Obyekt nomi** ««Xorazm viloyati Bog'ot tumani Ashxobod mahallasi Ravnaq va Parvona ko'chasi i/x yo'llini joriy ta'mirlash» (0,310km) loyihaning smeta qismi bo'yicha »

**Buyurtmachi** - Bog'ot tuman obodonlashtirish boshqarmasi

**Bosh loyihachi** - «Xorazm yo'l ko'priq qurilish» MChJ

**Litsenziya** 30.09.2020yildagi AL-001388 sonli litsenziya

**Moliyalashtirish manbai** - budjet

**Bosh pudratchi** - tanlov savdolari natijasida

**Qurilish turi** joriy tamirlash

**Murojaat raqami:** № 42669

**1. Loyihalash uchun asos**

1.1. Loyiha topshirig'i, nuqsonlar dalolatnomasi.

**2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar**

2.1. Smeta xujjati, narxlar kelishuvi bayonnomasi, nuqsonlar dalolatnomasi.

**3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni**

Smeta xujjatlariiga asosan quyidagi ishlar bajariladi: yo'l qoplamasini ta'mirlash.

Ob'ektning joriy narxlardagi narxi R.Uz qurilish sanoati (Toshkent-2021 yilning 3-choragi) foydalanadigan moddiy-texnik resurslarning joriy narxlari Katalogi, birja bahosi va bozor sharoitlari, baholar kelishish bayonnomasi yordamida resurs usuli bilan aniqlanadi.

Buyurtmachining 17.05.2022 yildagi 72-sonli xatiga ko'ra ob'ektning taxminiy narxini aniqlashda quyidagi narx parametrlari qabul qilingan:

- o'rtacha soatlik ish haqi miqdori - 16803,83so'm kishi/soat (shu jumladan, ijtimoiy sug'urta bo'yicha chegirmalar - 12%);
- pudratchining boshqa xarajatlari - 15,51%;
- buyurtmachi boshqa xarajatlari - 9000,000ming.so'm;

- ob'ektni sug'urta qilish xarajatlari - 0,32%;
- tavakkalchilik koeffitsienti - 1,0.

#### **4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:**

#### **5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.**

Smeta xujjatlari buyurtmachi bilan kelishildi.

#### **6. Ekspertiza natijalari.**

1 Shartnoma bo'yicha import texnologik uskunalarini sotib olish va yetkazib berish xarajatlari va u bilan bog'liq xarajatlar ekspertizadan o'tkazilmaydi.

2. Ekspertiza jarayonida mahalliy ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi.

3. Yakuniy harajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

4. Buyurtmachi loyihaviy hujjatlarni tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qurilish sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori 2019 yil 20 sentabrdagi 4464-soni qaroriga muvofiq buyutmach boshqa harajatlari tarkibiga qurilish qiymatidan 0,05% to'lovi "Shaffof qurilish" MAT hisobiga o'tkazilishi va SHNK 1.03.06-13 da «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo'yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo'yicha) yuklatiladi».

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 20 maydag'i "Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati faoliyatini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 3-bob 7 p. 9,10,11,12 va 9-bob 4 ustunlarga muvofiq ekspertiza natijasida aniqlangan kamchiliklar va takliflarni bartaraf etilishi va sifatini nazorat qilish (boshlang'ich hujjatlarni to'g'riliгини та'minlashda) mas'uliyati Buyurtmachiga va qabul qilingan loyiha yechimlar, smeta me'yorlariga muvofiqligi mas'uliyati Loyiha muallifiga yuklatilgan.

#### **7. Xulosalar.**

6.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda «Xorazm viloyati Bog'ot tumani Ashxobod mahallasi Ravnaq va Parvona ko'chasi i/x yo'lini joriy ta'mirlash» (0,310km) loyihaning smeta qismi ekspertiza natijasida aniqlangan kamchiliklar va takliflar inobatga olgan holda, buyurtmachi qabul qilgan ish hajmi va qiymatni belgilovchi parametrlerning chegaraviy harajatlarga quyidagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarga muvofiqligini tasdiqlagan taqdirda ko'rib chiqqan holda tasdiqlash uchun tavsiya etiladi:

Ko'rsatkichlar nomlanishi	O'Ichov birligi	Miqdori	
		Taqdim etilgan	Tavsiya etilgan
Qurilishning QQSsiz joriy narhi	ming.so'm	204 810,897	204 810,897
Qurilishning QQS bilan joriy narhi (15%)	ming.so'm	235 532,532	235 532,532
Buyurtmachi boshqa harajatlari (fakt.)	ming.so'm	9 000,000	9 000,000
Qurilishning QQS va buyurtmachi harajatlari bilan joriy narhi	ming.so'm	244 532,532	244 532,532

6.2. Ko'rsatilgan narh shartnoma tuzish uchun asos emas.

6.3. Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-sonli, 31.01.2022 yildagi 46-sonli qarori va ShNK 4.01.16-09 ga muvofiq tanlov savdolarini o'tkazish uchun ob'ektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

6.4. Buyurtmachi ekspertizaning kamchiliklar va takliflari bo'yicha tuzatilgan loyiha-smeta hujjatlarini bosh pudratchi tashkilotga o'tkazilishini ta'minlaydi.

**Bosh mutaxassis:** MATYAKUBOV SHIXNAZAR KURAMBAEVICH